

TARJIMASHUNOSLIKDA PARTSELLYATSIYA

Qurbonova Nasiba

JDPI Chet tillar fakulteti o'qituvchisi

Annotatsiya

Tilshunoslikda ma'no kuchaytirish, uning mohiyatini boyitish, ta'sir doirasini kengaytirishning turli usullari mavjud. Shulardan eng ko'p qo'llanilayotgan samarali usullaridan biri bu Partsellyatsion birliklar hisoblanadi. Partsellyatsiya - bu hissiyotlarni ifodalashni kuchaytirish, mavzuning holatini tavsiflash, ichki nutqni tasvirlash va hokazolarni kuchaytirish uchun bog'langan fikrni uning tarkibiy qismlariga ataylab bo'linishini ishlatadigan matnning sintaktik tuzilishi.

Parsellyatli tuzilmalar badiiy matnga og'zaki nutqqa xos intonatsion xususiyatlarni olib kirishning eng qulay va ta'sirchan usul hisoblanadi.

Kalit so'zlar: Partsellyatsiya, tarjimashunoslik, interpret, adekvatlik, semantic hodisa, stilistik hodisa, kommunikativlik xususiyati.

Tarjima haqida ilk nazariy fikrlar dastlab qadim Rimda yuzaga kelgan edi. Yunon va lotin tillarini mukammal bilgan Aristotel, Sitseron va Goratsiy tarjima jarayonida so'z ketidan quvish yaramaydi, ularning ma'no ifodalarini avval tarozida o'lchab, keyin tarjima qilish ma'qul, degan fikrni bildirganlar. Keyinchalik Italiyada Bartolomeo va Manetti, Fransiyada dyu Belle va Malerb, Angliyada Bekon va Drayden, Germaniyada Gyote va Gumboldt, Rossiyada Lomonosov va Sumarokov tarjima xususida o'z nazariy tushunchalarini bildirib o'tganlar.

Xullas, to XX asrga qadar "tarjima" so'zi muayyan ma'no kasb etib, faqat tarixiy, falsafiy va adabiy asarlar o'girmasiga nisbatan qo'llanilib kelingan, og'zaki tarjimonga nisbatan esa turkiyda "tilmoch", slavyanlarda "tolmach", nemis tilida "dolmetschen", ingliz va fransuz tillarida "interpret" atamaları ishlatilgan. Tarjima nazariyasi xususida aytilgan fikrlar ham shu yo'sinda umumiy ma'noga ega bo'lgan. Masalan, taniqli fransuz tilshunosi Jorj Munenning ta'kidlashicha, F.de Sossyur (1857-1918) va O. Garri Yespersen (1860-1943) tadqiqotlarida tarjima nazariyasi haqqimmmida fikrlar yo'q, hatto Sh. Balli (1865-1947) va J. Van-driyes (1875-1960) asarlarida ham bu xususida mulohaza bildirilmaydi.

Tarjima nazariyasiga bag'ishlangan ilk tadqiqotlar o'tgan asrning yigirmanchi yillarida yuzaga kela boshladi. Bu davrda nashr qilingan F.R.Amos, J.P.Postget, O.M.Finkel, M.P.Alekseyev kitoblarida, Sanjar Siddiqning "Adabiy tarjima san'ati" (1936 y.) risolasida ham tarjima nazariyasini fan sifatida e'tirof qiluvchi aniq fikrlar bildirilmagan edi. Tarjima nazariyasini fan sifatida ta'riflovchi va bunga da'vat etuvchi tadqiqotlar asrning elliginchi yillariga kelib e'lon qilina boshlandi. Aniqrog'i, 1952 yil "Inostrannie yaziki v shkole" jurnalida taniqli

tarjimon I.Kashkinning “Ishonchsiz tamoyil va noaniq xulosalar” va taniqli tilshunos A.A.Reformatskiyning “Tarjimaning lingvistik masalalari” nomli maqolalarining chop qilinishi bu sohada bahs-munozaralarning boshlanishiga sabab bo‘ldi. Masalan, professor A.A.Reformatskiy o‘z maqolasida “tarjima amaliyoti barcha fanlar uchun xizmat qilsa-da, tarjima nazariyasi mustaqil fan bo‘la olmaydi. U tilshunoslikning bir bo‘limigina bo‘lishi mumkin”, degan da’vo bilan chiqadi. Tez orada olimning bu fikriga qarshi tarjimashunos A.V.Fedorov: “Tarjima nazariyasi fan sifatida e’tirof qilinishi zarur. Faqat u qurilishi jihatidan tilshunoslik yo‘nalishiga vobasta bo‘lmog‘i kerak” degan g‘oyani ilgari suradi. Bu yillarda O‘zbekistonda ham tarjima nazariyasi xususida dadil fikrlar aytila boshlandi. Asqad Muxtor, Jumaniyoz Sharipov, G‘aybulla Salomov, Ninel Vladimirovalarning tarjima nazariyasidan bahs yurituvchi risola va maqolalari nashr qilindi.

adekvatlik – semantik – stilistik (ma’noviy - uslubiy) hodisa deb ataladi.

XX asr oxirlariga kelib, tarjimonlik faoliyati informatsion amaliyot va kommunikatsiya nazariyasi sohasida yangi bosqichga ko‘tarildi, bu esa tarjima adekvatligining funktsional–pragmatik kontseptsiyasi shakllanishiga imkoniyat yaratdi. Budan buyon funktsional–adekvat tarjimadan nafaqat tarjima tilining funktsional stilistik me’yorlariga muvofiqlashtirilgan asliyat matnining asosiy kommunikativ vazifasini to‘g‘ri tarjima qilish talab etiladi, balki lingvistik tamoyillar asosida ularning pragmatik va kognitiv xususiyatlari ham ochib berilishi talab etiladi.

Har qanday matn qandaydir bir kommunikativ vazifani bajaradi: u yoki bu narsa haqida habar beradi, hissiy qiyinchiliklarni ifoda etadi, kommunikantlar o‘rtasida aloqa o‘rnatadi, suhbatdoshdan qandaydir bir aks sado yoki aks hatti – xarakatlar qilishni talab etadi. Verbal muloqat chog‘ida bunday maqsadlarni qo‘yilishi berilayotgan xabar va uning tilda ifodasini belgilab beradi. Quyidagilarni qiyoslaylik: The rose is on the table (Na stole lejit roza, Stol ustida aturgul turibdi). What a beautiful rose! (Kakaya krasivaya roza! Qanday chiroyli atirgul!), Give me a rose, please (Day mne pojaluysta, rozu. Menga bitta atirgul ber, iltimos), Did you hear what I’ ve said? (Ti slishal chto ya skazal? Mening aytganlarimni eshitdingizmi?).

Yuqoridagi gaplar tarkibidagi har bir so‘z va strukturalar ma’nolari va xabarlarining konkret mazmunidan tashqari umumlashgan funktsional mazmunni ham kuzatish mumkin: faktni konstatatsiya qilish, his–hayajon, chorlash (buyurish, iltimos qilish) va aloqa o‘rnatish. Shu o‘rinda ta’kidlash lozimki, bir vaqttni o‘zida matn bir qancha kommunikativ vazifalarni bajarib kelishi mumkin. Yuqorida misol qilib keltirilgan gaplar o‘zaro bog‘langan har biri nutqiy kommunikatsiya faoliyati xosilasi sifatida kommunikativlik xususiyatini yo‘qotmaydilar, shuningdek ular mazmunan funktsional vazifalarga ham egalar.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, bugungi kunda tarjimashunoslikda ko‘p uchrab kelayotgan muammolar partsellyatsion birikmalarni ishlatish orqali oson hal qilinishi mumkin.

Faqatgina bu birikmalar hamda tarjimashunoslik haqidagi bilimlar kengroq o'rganilib chiqilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. A.D.Shveytsar "Tarjima nazariyasi" -1973
2. V.N.Komissarov "Teoriya perevoda"-1990. 220
3. A.A.Reformatskiyning "Tarjimaning lingvistik masalalari"